

**MILLIY MUSIQA VA BAXSHICHILIK SAN'ATINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK
IMKONIYATLARI**

Uzakov Satbay Erejebbaevich – o'qituvchi

uzakovsatbay8489@gmail.com

O'zDSMI Nukus filiali

**ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКИ И
ИСКУССТВА БАХШИ**

Узақов Сатбай Ережепбаевич – преподаватель

Нукусский филиал Государственного института искусств и культуры Узбекистана

**PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL POSSIBILITIES OF NATIONAL MUSIC AND THE
ART OF BAKHSHI**

Uzakov Satbay Erejebbaevich – Teacher

Nukus branch of the State Institute of Arts and Culture of Uzbekistan

Tayanch soʻzlar: milliy musiqa, baxshichilik, psixologik tarbiya, pedagogik vosita, estetik rivoj, xalq ogʻzaki ijodi.

Rezyume. Milliy musiqa, xususan, baxshichilik san'ati vositasida o'quvchi va yosh avlodning estetik, hissiy, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishiga psixologik-pedagogik ta'sir etish mexanizmlari tahlil qilingan. Baxshichilik san'atida mujassamlashgan ogʻzaki ijod, milliy qadriyatlar, ritmik va emotsional vositalarning shaxs kamolotiga ijobiy ta'siri asoslangan.

Ключевые слова: национальная музыка, бахши, психологическое воспитание, педагогическое средство, эстетическое развитие, устное народное творчество.

Резюме. Проанализированы механизмы психолого-педагогического воздействия на эстетическое, эмоциональное, социальное и духовное развитие учащихся и подрастающего поколения посредством национальной музыки, в частности искусства бахши. Обосновано положительное влияние устного творчества, национальных ценностей, ритмических и эмоциональных средств, воплощенных в искусстве бахши, на развитие личности.

Key words: national music, bakhshi art, psychological education, pedagogical tool, aesthetic development, oral folk art.

Summary. The mechanisms of psychological and pedagogical influence on the aesthetic, emotional, social and spiritual development of students and the younger generation through national music, in particular, the art of bakhshi, are analyzed. The positive influence of oral creativity, national values, rhythmic and emotional means embodied in bakhshi art on the development of the individual is substantiated.

Milliy musiqa har bir xalqning ma'naviy boyligi, tarixiy xotirasi va estetik dunyoqarashining yorqin ifodasidir. O'zbek va qoraqalpoq xalqining musiqiy merosida baxshichilik san'ati alohida o'rin egallaydi. Baxshilar ijrosidagi dostonlar, termalar, nafaqat musiqiy-estetik qadriyat, balki kuchli psixologik-pedagogik potensialga ega vosita sifatida ham ahamiyatlidir. Ular orqali yosh avlodga milliy qadriyatlarni singdirish, shaxsiy va ijtimoiy fazilatlarini tarbiyalash, ruhiy barkamollikka erishish mumkin. Baxshining ovozi, cholg'u sadolari va ritmik uslub orqali holatini boshdan kechirishadi. Bu esa shaxsning emotsional intellekti, his-tuyg'ularni boshqarish va tushunish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, baxshichilikda hikoya uslubi orqali hissiy bog'lanish hosil bo'ladi. Musiqiy ta'sir vositasida emotsional intellekt rivojlanishi alohida qayd etilgan: "O'zbek va qoraqalpoq milliy

musiqasi, ayniqsa doston va termalar, bolalarda emotsional turg'unlikni kuchaytiradi, stressga bardoshlikni oshiradi va ijobiy hissiy fon yaratadi".

Dostonlar kompozitsiyaga ega bo'lib, tinglovchini faol tasavvur qilishga undaydi. Har bir obraz, voqea, muammo va echim orqali o'smirlar va yoshlar kognitiv hamda reflektiv faoliyatni faollashtiradi. Bu esa o'quvchilarda tasavvur, tafakkur, nutq va mantiqiy fikrlash kabi psixik jarayonlarning rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, baxshilar tomonidan ijro etilgan dostonlarda namoyon bo'ladigan obrazlar, dramatik to'qnashuvlar, g'alaba va yo'qotish holatlari o'quvchilarda hissiy identifikatsiya shakllanishiga xizmat qiladi. Baxshichilikning ogʻzaki nutqqa asoslanganligi, voqelikni badiiy shakllarda ifodalashi, obrazlar vositasida taqdim etilishi o'smirlar va yoshlar tafakkurida tasvirlar hosil qilishni talab qiladi. Shu yo'l bilan inson

idroki, tasavvuri, eshituv xotirasi va mantiqiy tafakkuri faollashadi. Baxshilar ijrosida ezgulik, fidoyilik, sadoqat, sabr, halollik kabi qadriyatlar madh etiladi. Ulardagi qahramonlar obrazlari yosh avlod uchun axloqiy ideal vazifasini bajaradi. Bu qadriyatlar bugungi ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham dolzarbdir. Baxshichilik san'ati o'z mohiyatiga ko'ra ezgulik, jasorat, fidoyilik, sabr-toqat, haqiqatparastlik kabi ijtimoiy qadriyatlarni targ'ib etadi. Masalan, "Alpomish", "Go'ro'g'li", kabi dostonlar xalq orasida axloqiy ideal sifatida qaraladigan qahramonlar obrazi orqali yosh avlodda ma'naviy ong va axloqiy immunitetni shakllantiradi. Pedagogik tadqiqotlarda qayd etilishicha, "og'zaki xalq ijodi vositalari, xususan baxshichilik, axloqiy tushunchalarni bolalar ongiga singdirishda eng samarali estetik-tarbiyaviy vositadir". Baxshichilik san'ati interaktiv tusga ega: savol-javoblar, xalq bilan muloqot, improvizatsiya vositasida ijro amalga oshadi. Bu o'quvchilar va talabalar uchun nutqiy faollik, ijodkorlik, fikrni ifoda etish, madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Baxshichilikni dars jarayonlariga integratsiyalash orqali tarix, adabiyot, musiqa, madaniyatshunoslik kabi fanlar o'zaro uyg'unlashadi. Bu esa metapredmet kompetensiyalar – tanqidiy fikrlash, madaniy ong, jamoaviy ishlash, estetik baholash kabi yondashuvlarning shakllanishiga zamin yaratadi. Baxshichilik san'ati integrativ metodlar orqali bir necha fanlar – musiqa, tarix, adabiyot, psixologiya, madaniyatshunoslik bilan uzviy bog'lanadi. Shu sababli u o'quvchilarda quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi:

- Emotsional va estetik kompetensiya – his-tuyg'ularni anglash va ifodalash;
- Metakognitiv kompetensiya – eshitilgan matnni tahlil qilish, xulosa chiqarish;
- Ijtimoiy kompetensiya – jamiyatdagi qadriyatlarni anglash va ularga amal qilish;
- Madaniy kompetensiya – o'z milliy madaniyatini bilish, asrash va iftixor qilish.

Bu kompetensiyalar bugungi kompetensiyaviy yondashuv asosida qurilgan ta'lim tizimi uchun juda muhim hisoblanadi. Milliy musiqa va

baxshichilik yoshlar ongida milliy g'urur, madaniy xotira, ijtimoiy birdamlik hissini uyg'otadi. Bu ayniqsa globallashuv sharoitida madaniy assimilyatsiyaga qarshi turishda, o'zligimizni anglashda beqiyos vositadir. O'quvchi o'zini madaniyatga daxldor deb biladi, milliy qadriyatlarni qadrlash, saqlash va rivojlantirishga mas'uliyatni his qiladi. Milliy musiqa, xususan baxshichilik san'ati shaxsni har tomonlama kamol toptiruvchi vosita sifatida psixologik va pedagogik ahamiyatga egadir. U orqali nafaqat emotsional, axloqiy va estetik tarbiya amalga oshiriladi, balki kommunikativ, ijtimoiy-madaniy va metakognitiv kompetensiyalar ham rivojlanadi. Shu bois, zamonaviy ta'limda milliy san'at vositalaridan foydalanish zarur bo'lib, bu yosh avlodning barkamol inson sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. Milliy musiqa, ayniqsa baxshichilik san'ati, o'zining estetik, axloqiy, emotsional va madaniy ta'siri bilan shaxsiy tarbiyada yadro vosita bo'lib xizmat qiladi. Uning asosida emotsional sezgirlik, milliy qadriyatlarga hurmat, ijodiy tafakkur va kommunikativ ko'nikmalar shakllanadi. Shu bois, zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimida milliy musiqaning, xususan baxshichilikning pedagogik salohiyatidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. Musiqiy matnni tinglash va tushunish jarayonida inson miyasi faol ishlaydi: eslab qolish, tasavvur qilish, obrazlarni qayta ishlash kabi kognitiv funksiyalar faollashadi. Baxshining dostonlari voqeaviy rivoj, obrazlar, dramatik to'qnashuvlar asosida qurilgani sababli bu asarlar kognitiv jarayonlarga kompleks ta'sir ko'rsatadi. Masalan, doston mazmunini tinglagan o'quvchi-yoshlar uni aqliy tarzda tasavvur qiladi, hikoya strukturasi orqali sabab-oqibat bog'liqliklarini aniqlaydi va obrazlarga baho beradi. Bu esa abstrakt tafakkur, refleksiya, tanqidiy fikrlash kabi psixik faoliyat turlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, milliy musiqa va baxshichilikda mavjud bo'lgan ritmik-melodik tuzilmalar eshituv idroki va musiqiy xotirani kuchaytiradi. Tadqiqotlarga ko'ra, milliy ritmlar asosida o'rgangan bolalarning fonematik eshituv, diqqatni jamlash va verbal xotira ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov Sh. (2019). Musiqa psixologiyasi asoslari. Toshkent: O'zbekiston pedagogika nashriyoti.
2. Shomurodov I. (2020). "Baxshichilikda katarsis va ruhiy tozalanishning psixologik asoslari". №2.
3. Normurodova G. (2021). "O'zbek xalq og'zaki ijodi va u orqali axloqiy qadriyatlarni shakllantirish", O'zDJTU ilmiy axboroti, №1.
4. Madrahimova N. (2020). "Baxshichilik san'ati orqali o'quvchilarda estetik ongni shakllantirish", Ma'naviyat va ma'rifat. №5.
5. Hasanov D. (2022). "Nutqiy faoliyatda baxshichilik imkoniyatlari", Filologik tadqiqotlar, №4.